

JAMOAT JOYLARIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAHLILI, ULARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Berdialiye Baxtiyor Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tahlili va oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, jamoat joylarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jamoat joyi, jamoat tartibi, fuqarolar, jinoyat, huquqbuzarlik, qonun, javobgarlik, qasd, jamiyat, shaxs, jinoyat kodeksi, islohot, jamoatchilik, tan jarohati, zarar, harakat.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ В ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕСТАХ, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ИХ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье проведен криминологический анализ преступлений, совершаемых в общественных местах, изучены их основные направления и механизмы их предупреждения. Проанализированы и представлены предложения по совершенствованию механизмов предупреждения преступлений, которые могут совершаться в общественных местах, и преступлений против общественного порядка.

Ключевые слова: общественное место, общественный порядок, граждане, преступление, правонарушение, закон, ответственность, умысел, общество, личность, уголовный кодекс, реформа, публичный, травма, вред, действие.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF CRIMES COMMITTED IN PUBLIC PLACES, IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR THEIR PREVENTION

Abstract. The article provides a criminological analysis of crimes committed in public places, studies their main directions and mechanisms for their prevention. Suggestions for improving mechanisms for preventing crimes that can be committed in public places and crimes against public order are analyzed and presented.

Keywords: public place, public order, citizens, crime, offense, law, responsibility, intent, society, person, criminal code, reform, public, bodily injury, damage, action.

So'nggi yillarda respublikamizda jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining

“Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida” (2010), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi (2014) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” (2021), “Ichki ishlar

organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" (2021), "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2021), "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2024) qaror va farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishdan asosiy maqsad jamoat joylarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda jamoat tartibini saqlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda "Barcha islohot va o'zgarishlar – inson qadrini ulug'lash uchun" [1] degan ezgu tamoyil asoslangan hamda fuqarolarimiz uchun munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish, aholining turmush farovonligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishga qaratilgan.

Jamoat joylarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash masalasi hamma vaqt dolzarb bo'lib kelgan va bu yo'nalishda milliy hamda xorijiy mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy asosida o'rganishlar olib borilgan, olib borilmoqda.

Jumladan, I.I.Veremeyenkoning fikriga ko'ra, "jamoat tartibi" deganda, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta'minlaydigan, shu bilan jamiyat hayotining muvofiqlashtirilishi va dinamikligini kafolatlaydigan jamoat joylaridagi munosabatlar tartibi tushunilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini o'rnatish va saqlash maqsadini tashkil etadi [8; 18-b].

I.I.Veremeyenko jamoat tartibini saqlashning o'xshash maqsadlarini ko'rsatadi, E.A.Cherepanov esa bunday faoliyatning kutilayotgan yakuniy natijasini odamlarning hayotida sodir bo'ladigan normal muhitni yaratish uchun tegishli shart-sharoitlarni

ta'minlash shaklida ekanini aniqlaydi [9; 46-b]. Mohiyatan shunga o'xshash nuqtai nazar A.I.Pavlovskiyning dissertatsiya tadqiqotida ham bayon etilgan [10; 23–24-b.]. Tadqiq etilayotgan mavzu jinoyat huquqi bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlarda ham bayon qilingan, jumladan P.F.Grishayev ijtimoiy o'zaro munosabatlar sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning shunday tartibini "jamoat tartibi" deb hisoblaydi, unga ko'ra jamiyatning barcha a'zolari nafaqat huquqiy normalar, balki axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan qoidalarga rioya qilishlari kerak [11; 4-b.].

Jamoat xavfsizligining kafolati jamiyatning barcha a'zolari tomonidan ushbu normalarga rioya qilish bo'lib, fuqarolarning xavfsiz muhitda kundalik hayotini ta'minlaydi. Fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligini, jamoat va shaxsiy tinchligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojini anglash jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, olimlarning qarashlari munozarali bo'lib, jamoat xavfsizligi jamiyat va fuqarolarni himoya qilish holatini hisobga oladi, bu nafaqat fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, balki ularning mulkiga zarar yetkazuvchi xavf omillarini zararsizlantirish bilan bog'liq [12; 16–17-b.]. Inson salomatligining yomonlashishiga subyektning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish ham sabab bo'lishi mumkin.

Jamoat joylarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorida batafsil so'z yuritiladi. Shuningdek, mazkur qaror bilan Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risidagi nizom ham tasdiqlangan.

Mazkur Nizomning beshinchi bandida maskanning asosiy vazifalari belgilab berilgan bo'lib, ularga:

mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish;

fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish;

aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

mahalla (qishloq)ning kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa obyektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish.

Bundan tashqari, zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq maskan quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) mahalla (qishloq)da jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish sohasida:

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida nazarda tutilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;

jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish;

"jinoyat o'choqlari" hisoblangan joylarda piyoda, moto va avtopatrul yo'nalishlarini tashkil etish;

probatsiya nazoratidagi shaxslarning o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini uzluksiz tekshirish;

sodir etilgan jinoyatlarni "issiq izi"dan fosh etish bo'yicha dastlabki tadbirlarni tashkil etish, fuqarolarning shaxslarini aniqlash choralari ko'rish;

"Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhi a'zolaridan iborat patrul yo'nalishlarini tashkil etish;

b) fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish sohasida:

jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasini, sudning xususiy ajrimini fuqarolar ishtirokida ta'sirchan muhokama qilish, mazkur sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash;

jinoyatlarning usullari va oqibatlarini haqida tushuntirish-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

narkologik kasalliklarga (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka) chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ishlarini nazorat qilish;

v) aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish sohasida:

aholining eng muhim muammolarini aniqlash va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalari bo'yicha fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqot qilish yuzasidan zarur choralarni ko'rish;

fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolarning elektron ro'yxatini shakllantirish va ularni mahallada yashovchi har bir shaxs kesimida hal etish choralari ko'rish;

alohida ko'makka muhtoj (nogiron, og'ir kasal, keksa va nuroniy) fuqarolarning yashash manziliga borgan holda mobil qurilmalar orqali identifikatsiya ID-karta va xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish;

muammoli oilalar va uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslarning elektron ro'yxatini yuritish, ularga huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatilishini tashkil etish;

profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ijtimoiy moslashtirish ishlarini ularning elektron ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirilishini tashkil etish;

g) mahalla (qishloq)ning kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa obyektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish sohasida:

hududning kirish-chiqish joylariga, shuningdek, ko'p qavatli uylarda zamonaviy videokuzatuv moslamalari o'rnatilishini va uzluksiz ishlashini ta'minlash;

hududidagi obyektlarda o'rnatilgan video-

kuzatuv moslamalarini maskanga integratsiya qilinishi yuzasidan zarur tashkiliy choralarni ko'rish;


videokuzatuv lavhalarini sifatli va uzluksiz tahlil qilib borish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish choralarni amalga oshirish.

Shuningdek, maskan qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi ta'minlanganligi hisobiga jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlarning so'nggi to'rt yillik holati ilmiy tahlilida, ularning kamayib borish tendensiyasi kuzatilganini misol sifatida keltirish mumkin.

Jumladan, sodir etilgan jinoyatlar 2021-yilda 6 797 ta, 2022-yilda 5 850 ta, 2023-yilda 5 777 ta va 2024-yilda 5 517 tani tashkil etgan.

2024-yilda 2021-yilga nisbatan jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar 18,8 foizga (6 797 / 5 517) kamaygan.



2024-yilda respublika bo'yicha jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar jami jinoyatlarning 4,2 foizini tashkil etgan. Bu turdagi jinoyatlarning asosiy qismi (3 302 tasi yoki 68,6 foizi) o'g'rilik va bezorilik jinoyatlari hisoblanadi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasi ilmiy jihatdan isbotlangan usullarga asoslangan holda amalga oshirilishi, nazorat qilinishi va monitoringi olib borilishi kerak. Monitoring doirasida jamiyatda, atrof-muhitda,

aholining ayrim guruhlarida (shu jumladan, yuqori xavf ostida bo'lganlarda), mikromuhitda va shaxslarga nisbatan jinoiy ta'sirlar, jinoyatlar profilaktikasi subyektlari va ishtirokchilarining tegishli holatlariga ta'siri belgilanishi kerak. O'rganilgan vaziyat yoki shaxslar dinamikasini har tomonlama obyektiv baholash, ta'sir qilish usullari va vositalari bo'yicha asoslantirilgan qarorlarni ishlab chiqish, ko'rilgan choralar samaradorligini baholash lozim.


Monitoringning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) mamlakat va hududlarda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish holatini, ushbu faoliyatning imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlarini xolisona baholash; 2) jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sababiy kompleksi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish; 3) jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasini

takomillashtirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish va normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish uchun asoslar tayyorlashdan iborat.

Respublikada jami qayd etilgan tan jarohati yetkazish jinoyatlarning 20 foizi (1262 tasi), talonchilik jinoyatlarning 39 foizi (201 tasi), o'g'rilik jinoyatlarning 4 foizi (1 750 tasi), bezorilik jinoyatlarning 86 foizi (2 046 tasi) jamoat joylarida sodir etilgan.

Shu bilan birga, bu toifadagi jinoyatlarning 3 496 tasi (63,4 %) ko'chalar, maydonlar, bog'lar va xiyobonlarda qayd etilgan.

Bundan tashqari, Milliy gvardiya bo'linmalari xizmat olib borayotgan jamoat joylarida 41 ta (11 ta og'ir, 3 ta o'rtacha og'ir va 27 ta yengil) tan jarohati yetkazish, 13 ta talonchilik, 282 ta o'g'rilik, 42 ta bezorilik jinoyatlari sodir etilishiga yo'l qo'yilgan.



Jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar, asosan, kunning ikkinchi yarimida sodir etilgan bo'lib, bunday joylarda sodir etilgan jami jinoyatlarning 72,4 foizini tashkil etgan [16; 47–48-b.].

Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning maxsus kriminologik profilaktikasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1) jinoyatchilikning mavjud holati to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumot olish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2) jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etishga moyil fuqarolar tomonidan qonunga xilof harakatlar qilish uchun sabab sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish;

3) profilaktika tadbirlarini bevosita ana shunday shaxslar o'rtasida o'tkazish;

4) umumiy profilaktika va faol tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

1. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining sabablarini aniqlash va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyat sifatida ularning oldini olish monitoringini axborot ta'minoti juda keng yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktik faoliyati nafaqat ichki, balki tashqi ma'lumotlarni doimiy ravishda to'plash va ulardan foydalanishni talab qiladi.

2. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning umumiy profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida mazkur jinoyatlarning oldini olishning umumiy profilaktikasi doirasida aholining har bir qatlami uchun alohida yondashuv asosida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini ko'paytirish hamda umumiy profilaktikani samarali tashkil etish metodikasini ishlab chiqishi lozim.

3. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning individual profilaktikasi xizmat olib borilayotgan hududda jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, o'rganish va monitoringini o'tkazishni, shuningdek, oldini olish uchun salbiy ta'sir manbalarini zararsizlantirish imkoniyatlarini baholashni va oldini olish imkoniyatlarini o'rganishni o'z ichiga olishi kerak.

4. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning maxsus profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun uning monitoringi asosida profilaktika tadbirlarini dasturlash, shuningdek, huquqiy va

tashkiliy-huquqiy tartibga solish orqali erishiladigan chora-tadbirlarning murakkabligini, ushbu profilaktikaning barcha subyektlari o'zaro hamkorligini ta'minlash hamda uni muvofiqlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Jumladan, unda, birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yagona kompleks milliy dasturda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha alohida bo'lim nazarda tutilishi va dasturning ushbu bo'limi kriminologik prognoz va profilaktika monitoringiga asoslanishi hamda jamiyatni ushbu turdagi jinoiy hujumlardan himoya qilishning yaxlit konsepsiyasida ifodalashi zarur, ikkinchidan, jinoyatchilarning noqonuniy xatti-harakatlari usullarida o'rganish natijasida aniqlangan o'zgarishlarni hisobga olgan holda mintaqadagi kriminologik vaziyatni o'rganish va prognozlash asosida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hududiy maqsadli dasturlarni (kichik dasturlarni) yaratish (mazkur dasturlarda: jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar bilan kurashning asosiy maqsad va yo'nalishlari, ularning yo'llari hamda vositalari, yutuqlari berilishi kerak) lozim, uchinchidan, yagona idoralararo axborot-tahlil xizmatini tashkil etish kerak.

5. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasida bevosita va yagona profilaktika shaklida ishni tashkil etish uchun profilaktika inspektorlari hamkorligida jamoatchilik, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mehnat jamoalarining imkoniyatlaridan foydalanish, yakka tartibdagi profilaktikani rejali va kompleks yondashuv asosida tashkil etish, zarur hollarda yakka tartibdagi profilaktika ishini yuritish va tegishli davlat organlari yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/7646>. 25.10.2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-sonli farmoni. 16.01.2024. <https://lex.uz/docs/6755597>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni. 14.05.2014. <https://lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son qonuni. 29.09.2010. <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori. 02.04.2021. <https://lex.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qarori. 15.04.2021. <https://lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni. 29.11.2021. <https://lex.uz>.
8. *Веремеенко И.И.* Механизм административно-правового регулирования в сфере охраны общественного порядка: Предмет и понятие. Ч. 1. – М.: Изд-во ВНИИ МВД СССР, 1981. – С. 18.
9. Черепанов Е.А. Общественная безопасность: теоретико-правовые и организационные проблемы ее обеспечения // Вопросы совершенствования деятельности милиции общественной безопасности. Сборник/ № 9. – М., 2002. – С. 46.
10. *Павловский А.И.* Административно-правовые гарантии прав и свобод граждан в сфере охраны общественного порядка: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1998. – С. 23–24
11. *Гришаев П.Ф.* Преступления против общественной безопасности и порядка. – М.: ВЮЗИ, 1959. – С. 4.
12. *Кондрашов Б.П.* Общественная безопасность и административно правовые средства её обеспечения. – М.: Щит-М, 1998. – С. 16–17.
13. *Чашин А.Н.* Использование института административной преюдиции в борьбе с наркопреступностью // Административное право и процесс. – 2012. №2. – С. 40.
14. *O'razaliyev M.Q.* "Jinoyatchilik bilan aloqador bo'lgan ijtimoiy salbiy hodisalarning sabablari va ularning oldini olish: Monografiya. – T.: TDYUU nashriyoti, 2023. – 186 b.
15. *Долгополов Д.В.* Проблемы контроля и особенности возложения обязанностей на осужденных, страдающих наркотической зависимостью, в период условно досрочного освобождения от отбывания наказания // Уголовно исполнительная система: право, экономика, управление. 2011. №1. – С. 6.
16. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024-yil bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 136 b.
17. *Климов С.А.* Контроль за лицами, освобожденными из исправительных учреждений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар, 2012.
18. *Потапов А.М.* О состоянии пост пенитенциарного контроля за лицами, отбывшими наказание в виде лишения свободы // Ведомости уголовно-исполнительной системы. – 2012. – №7. – С. 25–30.
19. *Фильченко А.П.* Административный надзор за лицами, освобожденными из мест лишения свободы: правовая природа и перспективы законодательного регулирования // Административное право и процесс. – 2012. – №2. – С. 55–57.

